

UDK: 311.114

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARIDAGI IQTISODIY
RIVOJLANISH HOLATINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI

Abdujalilova Guzal Saydillaevna,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy universiteti tayanch doktoranti (PhD)
E-mail: abdujalilova_g@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi sanoat tarmog‘ining rivojlanish holatini iqtisodiy-statistik tahlili, O‘zbekistonda YaIMning hududlar kesimida o‘shishi, O‘zbekistonda aholi jon boshiga YaIM o‘shishi dinamikasi, YaIMni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘shish sur‘atlari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda sanoat tarmog‘idagi korxonalarining erishayotgan ko‘rsatkichlarini, ularning rivojlanish bosqichlari va ularga ta‘sir qiluvchi omillarning o‘ziga hos xususiyatlari, sanoat statistikasiga oid statistik ko‘rsatkichlar tizimini tahlil etishning xorij tajribasi talqin qilingan. Shu bilan birga, xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar va ularning erishgan yutuqlari, bergan taklif va mulohazalarining o‘ziga hos xususiyatlari va ularning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta‘sirini maxsus ko‘rsatkich va qoidalar yordamida baholanib, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda ulardan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: makroiqtisodiyot, makroiqtisodiy barqarorlik, YaIM, sanoat, sanoat statistikasi, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, statistik ko‘rsatkichlar, statistik tahlil, trend, davrlarda o‘zgarishlar, IFUT, mahalliy homashyo, eksport, import.

АННОТАЦИЯ. В данной статье проведен экономико-статистический анализ состояния развития промышленного сектора Республики Узбекистан, роста ВВП Узбекистана по регионам, динамики роста ВВП на душу населения в Узбекистане, роста ВВП по видам анализируются названия экономической деятельности. Также интерпретируется зарубежный опыт анализа показателей, достигнутых предприятиями промышленного сектора Узбекистана, этапы их развития и особенности

вливающих на них факторов, система статистических показателей, относящихся к статистике промышленности. При этом с помощью специальных показателей и правил оцениваются исследования, проведенные зарубежными экономистами, их достижения, особенности их предложений и замечаний, их влияние на экономику нашей страны, а также их эффективное использование в анализ макроэкономических показателей, приводятся научные предложения и рекомендации.

Ключевые слова: макроэкономика, макроэкономическая стабильность, ВВП, промышленность, статистика промышленности, экономические и социальные процессы, статистические показатели, статистический анализ, тренд, изменение периодов, ИФУТ, местное сырье, экспорт, импорт.

ABSTRACT. *This article provides an economic and statistical analysis of the state of development of the industrial sector of the Republic of Uzbekistan, GDP growth in Uzbekistan by region, the dynamics of GDP per capita growth in Uzbekistan, GDP growth by type, the names of economic activities are analyzed. It also interprets foreign experience in analyzing the indicators achieved by enterprises in the industrial sector of Uzbekistan, the stages of their development and the features of the factors influencing them, the system of statistical indicators related to industrial statistics. At the same time, with the help of special indicators and rules, studies conducted by foreign economists, their achievements, the features of their proposals and comments, their impact on the economy of our country, as well as their effective use in the analysis of macroeconomic indicators are evaluated, scientific proposals and recommendations are given.*

Key words: *macroeconomics, macroeconomic stability, GDP, industry, industrial statistics, economic and social processes, statistical indicators, statistical analysis, trend, change in periods, IFUT, local raw materials, exports, imports.*

KIRISH

O'zbekiston sanoati rivojlanishining asosiy maqsadi nafaqat ushbu sektorda o'sish sur'atlarini oshirishga intilish, balki boy tabiiy resurslar salohiyatidan foydalanish orqali ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda mamlakat sanoati raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish uchun chora-tadbirlar majmuini shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'i faoliyatida iqtisodiy salohiyat majmuasidan samarali foydalanishni ta'minlash, iqtisodiy samaradorligini

statistik baholash, moliya hamda investitsion salohiyatini statistik usullarda tahlil qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham "tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, sanoat tarmog'i raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport salohiyatini yuksaltirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shuningdek, sanoatni rivojlanishi bilan ekologik muammolarni bartaraf etish masalalarini ham ijobiy hal etib kelinmoqda. Buni "sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish bo'yicha "yashil iqtisodiyot"ga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash dasturi hamda elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni rag'batlantirish tizimini yaratish" vazifasi belgilab berilgani bilan izohlashimiz mumkin [1].

Ushbu vazifalarning samarali ijrosi milliy sanoat tarmog'i iqtisodiy rivojlanishini baholashda "MHT-2008" xalqaro standarti uslubiyotlaridan foydalanishni takomillashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirishni statistik jihatlarini tadqiq etish va prognozlashni taqozo etadi.

Tarmoqning rivojlanishi asosan mamlakat mintaqalarida, jumladan, kichik va o'rta shaharlarda mahalliy bozorni arzon va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, ish o'rinlarini tashkil etish va bandlikni oshirish, xususan, ayollarni ish bilan ta'minlashda kuchli omil bo'ladi.

Yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida asosiy tarkibiy o'zgarishlar mavjud ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini isrof bo'lishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida yetishtirilgan joyida, aksariyat hollarda kichik korxonalarda qayta ishlashni yo'lga qo'yish va xomashyolardan oqilona foydalanish hisoblanadi. Yengil sanoatda ichki ishlab chiqaruvchilarni importdan himoya qiluvchi choralarni joriy qilish lozim. Mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga talab ortishi mazkur tarmoqlar mahsulotlari o'sishining asosiy manbaidir.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 22-maqsadida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish, xususan, sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash zarurligi belgilab berilgan. Shuningdek, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish sanoat tarmog'ini rivojlantirishda ustuvor vazifa [1] sifatida ko'rsatib berilgan:

- energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirib, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish

hamda ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste'mol normalarini kiritish;

- iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft-gaz mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash;

- mis sanoati klasterini tashkil etish orqali mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravar ko'paytirish hamda 8 mlrd. dollarlik mahsulot ishlab chiqarish uchun asos yaratish;

- kimyo va gaz-kimyosi sohasini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 mlrd. AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish;

- avtomobil sanoatida kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko'paytirish va mahalliyashtirish darajasini oshirish. Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi mashinasozligi ishlab chiqarishini yagona sanoat klasteri usulida tashkil etish;

- qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish;

- to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish;

- charm-poyabzal sohasini rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 3 baravarga ko'paytirish;

- farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 baravar ko'paytirish va mahalliy bozorni ta'minlash darajasini 80 foizga yetkazish;

- elektrotexnika sanoatida yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga va eksportini 3 baravarga oshirish;

- mebel mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,8 baravarga ko'paytirish;

- oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish;

- yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish;

- sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish natijasida mamlakatimizda barqaror iqtisodiy rivojlanishiga va bu orqali aholi hayoti farovonligini oshirish mumkin bo'ladi.

Sanoat ishlab chiqarishini tahlil qilish uchun statistik ko'rsatkichlar tizimi tarmoq ishlab chiqarish hajmi va ko'lamini hamda ularning darajasi va dinamikasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, tizim sanoat ishlab chiqarishi tuzilmasi va undagi o'zgarishlarni to'liq aks ettirishi zarur. Sanoat mahsulotlariga talab dinamikasi va holati ko'rsatkichlari tizimning eng muhim qismi bo'lishi kerak. Shuningdek, mehnat resurslarining ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilinganlik va foydalanish ko'rsatkichlari ham statistik tizimda o'z aksini topishi lozim. Bundan tashqari, statistik tizim, imkon qadar, sanoatning iqtisodiy rivojlanish

istiqbollarini aniqlay olish uchun turli darajadagi integral rivojlanish ko'rsatkichlarini o'z ichiga olishi kerak.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan Y.N. Ivanova har qanday statistik tahlilni o'tkazishning zaruriy sharti bu sifatli ko'rsatkichlar tizimining mavjudligi bilan izholagan. Uning olib borgan tadqiqotlari natijasida statistik ko'rsatkichlar tizimiga muayyan statistik vazifani hal qilishga qaratilgan mazmuniy bog'lanish va qat'iy tartibli tuzilmaga ega bo'lgan o'zaro bog'liq va o'zaro muvofiqlashtirilgan statistik ko'rsatkichlar yig'indisidir deya ta'rif beradi [2].

Shuningdek, iqtisodiy jarayonni turli o'lchamlarda yoki uning turli jihatlarida tavsiflovchi tizim ko'rsatkichlari bir xil uslubiy asosga ega bo'lishi yoki uslubiy jihatdan muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak. Muvofiqlashtirilganlik tadqiq etilayotgan ko'rsatkichlardan nafaqat bevosita izohlash uchun, balki kombinasiyalarda ham foydalanish hamda tahliliy maqsadlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan turli hosila koeffisientlarni tuzish imkonini beradi. Ta'rif va tasniflarni uyg'unlashtirish va muvofiqlashtirish, ular asosida turli statistik ko'rsatkichlarni hisoblash amalga oshiriladi, muvofiqlashtirilganlikka erishish imkonini beradi. Amalda bu umume'tirof etilgan tamoyillar va uslubiyotlarga asoslangan mavjud tizimlar doirasida shakllangan ko'rsatkichlardan jahon hamjamiyatida foydalaniladi.

Yana bir rossiyalik iqtisodchi olim V.M. Gusarova iqtisodiyotda sodir bo'layotgan barcha jarayonlarni turli o'lchamlarda yoki uning turli jihatlarida tavsiflovchi tizim ko'rsatkichlari bir xil uslubiy asosga ega bo'lishi yoki uslubiy jihatdan muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerakligini aytishgandi. Sanoat statistikasi ko'rsatkichlari tizimiga quyidagi asosiy talablarni ajratib ko'rsatish mumkin: ko'rsatkichlar qiymatining ochiqqligi; to'liqlik va mazmunan boyligi; metodologik muvofiqlashtirilganlik [3].

Bugungi kunga kelib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va dasturlarni miqdor va sifat jihatidan tavsiflash va baholash imkonini beradigan ko'p sonli turli iqtisodiy-statistik ko'rsatkichlar tizimlari ishlab chiqilgan. Ularning orasida milliy hisoblar tizimi (MHT-2008), shuningdek, tezkor biznes-statistika asosiy o'rinni egallaydi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B.T. Salimov sanoat sohasini rivojlantirish iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o'rnining nihoyat darajada kengligi bilan doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Sanoat ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida olib, u obyektiv reallik (borliq)ning inikosi va yuksak umumlashmasidir [4].

M.P. Nazirkulov olib borgan tadqiqotlari natijasida sanoat korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi uchun albatta operativ qarorlar qabul qilishda asos bo'luvchi biznes statistikasining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish zarur deb

hisobalagan. Bunda, asosan buxgalteriya ma'lumotlari bilan bir qatorda, marketing ma'lumotlaridan ham keng foydalanilish mumkinligini bildirgan [5].

U.Sh. Shukurov o'zining ilmiy izlanishlarini sanoat korxonalarini faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning mintaqaviy xususiyatlari tahlil qilish ustida olib borgan. U omillarni kelib chiqish manbalariga ko'ra, tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy, moliyaviy, iqtisodiy, sanoat-texnologik, ilmiy-texnik va tashkiliy-boshqaruv guruhlari bo'linadi. Tabiiy-iqlimiy omillar sanoat korxonalarini innovatsion faoliyati natijalariga katta ta'sir o'tkazadi. Mintaqada joylashgan sanoat korxonalarini innovatsion faoliyati rivojlanishi va innovatsion faoliyatning o'sishiga suv ta'minoti, qulay iqlim, ish sharoitlari va yirik yoqilg'i va xom-ashyo manbalarining mavjudligi katta hissa qo'shadi [6].

Xorijiy tadqiqotchi olimlardan Wu Qinghong hududlarda sanoatni rivojlantirishda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning holati va undan foydalanish imkoniyatlari o'rgangan. Hozirgi kunda Respublikada iqtisodiy islohotlarni olib borishda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, uning omillaridan samarali foydalanish va iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish asosiy vazifa sifatida belgilanganligi aniqlagan [7].

S.A. Sheraliyevaning "Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiya jalb etishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish" deb atalgan maqolasida hududlar sanoatini rivojlantirishda erkin iqtisodiy hududlar ahamiyati to'g'risida va investitsiyalarni jalb etish loyihalarining muhimligi haqida fikr yuritadi [8].

B.B. Muhammadjonovning "O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat hududlari rivojlanishining istiqbollari" nomli maqolasida "Hozirgi kunda kichik biznesni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali yo'llaridan biri bo'lib kichik sanoat zonalari hisoblanadi. Kichik sanoat zonalari - bu tadbirkorlik subyektlarini joylashtirishga mo'ljallangan, muhandislik kommunikatsiya va infratuzilma obyektlarini, ma'lum yer maydoni yoki ishlab chiqarish maydonini o'z ichiga oluvchi hudud. Kichik sanoat zonalari ular joylashgan hududlarni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratadi." deb ta'kidlaydi [9].

D. Sh. Raximov olib borgan tadqiqotlari davomida hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish nuqtai nazaridan-mintaqa sanoati raqobatbardoshligini oshirish, o'z imkoniyatlari hisobiga ichki talabni qondirish, hududlararo, respublika va xalqaro bozorlar ulushini kengaytirish, sinergetika samarasini olish, resurs tejamkor siyosatni ishlab chiqish, byudjet yig'imlarini ko'paytirish, moliyaviy barqarorlik va hududlar mustaqilligini ta'minlash muhim deb hisoblagan [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining dunyo mamlakatlari sanoat tarmog'ini ifodalovchi yalpi statistik ko'rsatkichlar tizimi

va uni tahlil qilish usullarini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy asarlari qiyosiy o'rganilgan.

Mazkur tadqiqot ishimizning obyektida mamlakatimiz sanoat tarmog'ining yalpi statistik ko'rsatkichlar tizimi hisoblanadi. Mavzuga oid statistik ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish va ularni tahlil qilish uchun statistik ma'lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, tanlanma kuzatuv usullari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlaridan foydalanildi. Maqolaning tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va quyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sanoat majmuida qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish uchun ishlab chiqilgan dasturlar samarasi hamda jahon bozorida sanoat mahsulotlariga, jumladan, oziq-ovqat, yengil va mashinasozlik sanoatlari mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi pirovard – natijada sanoat ishlab chiqarishining qo'shimcha o'sishiga olib keldi [11]. O'zbekiston sanoatining kompleks tarmoqlarini shakllantirishga erishildi (1-jadval).

1- jadval

O'zbekiston sanoatining kompleks tarmoqlari¹

T/r.	Kompleks tarmoqlar	Kompleks tarmoqqa kiruvchi tarmoqlar soni
1.	Elektr energetika sanoati	3
2.	Ko'mir sanoati	2
3.	Gaz sanoati	2
4.	Neft' va neftni qayta ishlash	2
5.	O'ora metallurgiva	2
6.	Rangli metallurgiva	4
7.	Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	40
8.	Kimyo va neft'-kimyo sanoati	12
9.	O'rmonsozlik, yog'ochni qayta ishlash va qog'oz	3
10.	Qurilish materiallari sanoati	14
11.	Oyna va chinni-favans sanoati	2
12.	Mikrobiologiva sanoati	12
13.	Medsina (farmasevtika) sanoati	3
14.	Poligrafiya	1
15.	Yengil sanoat	18
16.	Oziq-ovqat sanoati	22
17.	Un, yorma va yem sanoati	3
18.	Qolgan tarmoqlar	21

¹ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Sanoatda ishlab chiqarish jarayonlarining rivojlanishini tahlil qilish uchun statistik ko'rsatkichlarning samarali tizimini tuzish uchun ma'lumotlarni tanlash MHT va TBS ko'rsatkichlarining mazmunli va metodologik tahlili asosida amalga oshirildi. Bu esa olingan faqat tizim sanoat ishlab chiqarishining barcha jihatlarini aks ettirishning to'liqligini emas, balki metodologik darajada ko'rsatkichlarning taqqoslamaligini, muvofiqlashtirilganligini ta'minlaydi (2-jadval) [12].

2-jadval

“MHT-2008” xalqaro standarti metodologiyasi asosida milliy sanoat ishlab chiqarishining statistik ko'rsatkichlar tizimi

T/r.	Ko'rsatkich	Shakl	Kiritishdan maqsad
1.	Yalpi ishlab chiqarish	Milliy valyuta, taqqoslama narxlar, mutloq va nisbiy miqdorlar	Sanoat tarkibi, ishlab chiqarish va iste'mol tahlili
2.	Oraliq iste'mol		
3.	Qo'shilgan qiymat		
4.	Tovar aylanmasi	Zanjirsimon iqtisodiy indekslar	Ichki va tashqi iste'molchilar tomonidan sanoat mahsulotlariga bo'lgan talab tahlili
5.	Narx indeksi		
6.	Tovar (xizmat) lar eksporti, importi	AQSh doll., mutloq va nisbiy miqdorlar	Ishlab chiqarish fizik hajmi dinamikasining tahlili
7.	Sanoat ishlab chiqarishi indeksi	Zanjirsimon iqtisodiy indekslar	
8.	Iqtisodiyotda bandlar soni		
9.	O'rtacha ish haqi		
10.	O'rtacha ishlangan soatlar soni		
11.	Asosiy kapitalga investisiyalar	Milliy valyuta (so'm), mutloq va nisbiy miqdorlar	Sanoatda va uning alohida sohalarida o'rta muddatli tendensiyalarni tahlil qilish
12.	Iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari	Taqqoslama narxlar	O'zbekiston iqtisodiyotida qisqa muddatli tendensiyalarni iqtisodiy-statistik tahlil qilish
13.	Boshqa makroiqtisodiy-statistik ko'rsatkichlar	Iqtisodiy indekslar, mutloq va nisbiy miqdorlar, variatsiya ko'rsatkichlari	

Tadqiqotda «MHT-2008» xalqaro standarti metodologiyasi asosida sanoat ishlab chiqarishi faoliyatini tahlil qilish uchun ko'rsatkichlar tizimida quyidagi ko'rsatkichlar statistik guruhini ajratib ko'rsatish tavsiya etilgan [13]:

birinchi guruh: sanoat ishlab chiqarish tuzilmasi statistik ko'rsatkichlaridan iborat bo'lib, ularga mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish (YaIch), oraliq iste'mol (OI) va yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) kiradi.

ikkinchi guruh: sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabni tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlar kiradi. Avvalo, ularga tezkor biznes-statistika ko'rsatkichlari,

xususan, tovar aylanmasi indeksi (Jqp) va ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi (Jp) kiradi. Ushbu guruhning yana bir bloki tashqi savdo ko'rsatkichlari, xususan, bojxona statistikasi ma'lumotlari bo'yicha tovar (xizmat)lar eksporti va importi hamda umumiy tashqi savdo aylanmasi hisoblanadi.

uchinchi guruh: tarmoqning rivojlanish istiqbollari tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlar kiradi. Bu guruhga o'sish (kamayish) sur'ati ko'rsatkichlari: ishlab chiqarishda band bo'lganlar soni (T), bir xodimning o'rtacha ishlagan soatlari soni (t) va o'rtacha ish haqi (z) kiradi.

to'rtinchi guruh: tezkor biznes-statistikaning bir ko'rsatkichi - sanoat ishlab chiqarishining jismoniy hajmi (Jq) dinamikasini tavsiflaydigan sanoat ishlab chiqarish indeksidan (Jqp) iborat.

3-jadval

O'zbekistonda YaIMning hududlar kesimida o'sishi, %da⁴

Hududlar	2000-yil	2005-yil	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
O'zbekiston	103,8	107,0	107,1	107,2	102,0	107,4	105,7
Qoraqalpog'iston	89,7	106,9	112,5	110,5	102,0	107,6	104,0
Andijon	102,8	110,2	109,2	103,4	102,7	104,8	108,6
Buxoro	104,2	109,9	110,0	108,5	102,8	106,5	104,4
Jizzax	104,2	108,3	109,2	108,3	104,8	107,7	104,7
Qashqadaryo	99,0	108,0	103,1	106,6	102,7	106,8	105,6
Navoiy	103,2	102,2	103,9	103,8	106,6	107,3	105,5
Namangan	108,0	107,0	110,3	107,7	105,1	109,7	106,6
Samarqand	104,6	106,1	110,7	108,4	101,8	108,5	105,8
Surxondaryo	105,5	105,5	110,9	107,3	104,4	107,9	104,0
Sirdaryo	102,6	111,1	108,3	107,1	101,8	109,0	105,0
Toshkent vil.	110,9	103,8	108,8	105,9	102,9	110,4	105,1
Farg'ona	106,1	106,5	106,7	107,3	104,8	108,2	104,6
Xorazm	94,8	103,4	106,6	109,0	101,3	108,1	105,7
Toshkent sh.	104,5	106,6	111,9	109,2	102,4	116,0	107,9

beshinchi guruh: O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining qisqa va o'rta muddatli tendensiyalarini tahlil qilish uchun mo'ljallangan. Unda yuqoridagi barcha ko'rsatkichlar plyus kon'yunktura va makroiqtisodiy statistikaning asosiy ko'rsatkichlari: inflyatsiya, choraklik YaIM (Q), milliy valyuta kursi va boshqalar kiradi.

YaIMning o'sish dinamikasini hududlar kesimida tahlil qilish orqali hududlarning iqtisodiy salohiyatiga statistik baho beramiz (3-jadval).

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2000 yilda YaIMning o'sish sur'ati Toshkent viloyati (110,9%), Namangan (108,0%) va Farg'ona (106,1%)

⁴ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2022 yilda Andijon (108,6%), Toshkent shahri (107,9%) hamda Namangan (106,6%) viloyatlariga to'g'ri kelgan.

Yuqoridagi jadvaldagi ko'rsatkichni aholi jon boshiga YaIMning o'sish sur'atlari orqali yanada obyektiv baholashimiz mumkin bo'ladi (4-jadval).

4-jadval

O'zbekistonda aholi jon boshiga YaIM o'sishi dinamikasi, %da⁵

Hududlar	2000-yil	2005-yil	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
O'zbekiston	102,4	105,7	104,1	105,4	100,1	105,3	103,5
Qoraqalpog'iston	88,2	106,5	110,3	108,8	100,6	106,2	102,6
Andijon	101,3	108,7	105,6	101,5	100,7	102,8	106,4
Buxoro	102,9	108,6	106,9	106,7	101,4	105,1	102,8
Jizzax	102,5	107,3	105,9	106,2	102,6	105,4	102,4
Qashqadaryo	96,9	106,1	100,0	104,2	100,8	104,7	103,4
Navoiy	102,1	101,7	101,8	102,3	104,8	105,3	103,4
Namangan	106,3	105,5	106,4	105,6	103,0	107,5	104,3
Samarqand	103,0	104,6	107,1	106,3	99,9	106,4	103,6
Surxondaryo	103,5	103,8	107,3	104,9	102,2	105,7	101,6
Sirdaryo	101,4	110,4	106,5	105,3	100,0	107,0	102,9
Toshkent vil.	109,9	103,0	106,9	104,6	101,9	111,7	103,3
Farg'ona	104,7	105,0	103,2	105,4	102,9	106,2	102,5
Xorazm	93,0	101,8	104,2	107,0	99,7	106,5	103,9
Toshkent sh.	104,6	106,4	109,6	108,3	98,5	108,7	104,6

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2000 yilda YaIMning aholi jon boshiga o'sish sur'ati Toshkent viloyati (109,9%), Namangan (106,3%) va Farg'ona (104,7%) viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2022 yilda Andijon (106,4%), Toshkent shahri (104,6%) hamda Namangan (104,3%) viloyatlariga to'g'ri kelgan.

Bizning fikrimizcha, statistik tahlilda statistik ko'rsatkichlar tizimi bir qator tamoyil va mezonlarga javob berishi kerak, bu esa u tomonidan tavsiflangan iqtisodiy jarayonni statistik tahlil qilish va uning barcha jihatlarini to'la qonli tavsiflash imkonini beradi. Shuningdek, tanlangan statistik ko'rsatkichlar o'rganilayotgan jarayonning barcha predmetlarini tasvirlashni bildiradi.

Sanoat mahsuloti sifati va raqobatbardoshligini statistik baholash, prognozlash uchun sifatli ko'rsatkichlarni tanlab olish zarur. Optimal tanlov murakkab vazifa hisoblanadi, chunki parametrlar nafaqat mahsulotning texnik xususiyatlarini aks ettirishi, balki ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishi, iste'molchilar didiga va modaga javob berishi ham lozim. Sanoat mahsuloti sifatini tavsiflaydigan parametrlarni oqilona tanlash muammosi eng muhim texnik-

⁵ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

iqtisodiy vazifalardan biri sanaladi. Parametrlarni noto'g'ri tanlash sanoat mahsulotini ishlab chiqarish va undan foydalanishda noishlab chiqarish xarajatlarining katta bo'lishiga olib keladi.


Iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishi uchun barcha tarmoqlarni, xususan, sanoat tarmog'ini yanada rivojlantirish zarur hisoblanadi. Bu borada esa "sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformasiya jarayonlarini yakunlash, energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirib, sohaga xususiy investisiyalarni keng jalb qilish hamda ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste'mol normalarini kiritish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft'-gaz mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash.

Mis sanoati klasterini tashkil etish orqali mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravar ko'paytirish hamda 8 mlrd. dollarlik mahsulot ishlab chiqarish uchun asos yaratish, kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 mlrd. AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish, avtomobil' sanoatida kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko'paytirish va mahalliyashtirish darajasini oshirish. Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi mashinasozligi ishlab chiqarishini yagona sanoat klasteri usulida tashkil etish qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish, to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish, charm-poyabzal sohasini rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 3 baravarga ko'paytirish, farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 baravar ko'paytirish va mahalliy bozorni ta'minlash darajasini 80 foizga yetkazish, elektrotexnika sanoatida yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga va eksportini 3 baravarga oshirish, mebel' mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,8 baravarga ko'paytirish, Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish, yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish hamda sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish" [1] vazifalari belgilab berilgan.

Shuningdek, iqtisodiyot rivojlanishida eksportning yuksak o'rni tufayli, unda sanoatning ulushini oshirish choralari ham nazarda tutilmoqda. Xususan, eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish hamda mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish" [1] chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda 2000 yilda YaIM (103,8%), yalpi qo'shilgan qiymat (103,8%), qishloq xo'jaligi (103,2%), sanoat (101,3%) va xizmatlarning (105,4%) o'sish darajasi o'tgan yilga nisbatan ijobiy bo'lgan hamda 2022 yilda

ham ushbu ko'rsatkichlar barqaror o'sish dinamikasini saqlab qolgan hamda o'tgan davrlarda xizmatlar yetakchi o'rinlarni egallagan (1-rasm).



1-rasm. YaIMni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sishi, %da⁶

O'zbekiston Respublikasining so'nggi yillarda erishgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilar ekanmiz, bu boradagi eng katta yutug'imiz yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi ko'paygani hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda uning roli sezilarli darajada oshganida namoyon bo'lmoqda 2010-yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 52,5%i iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 53,3%ni tashkil etdi. 2022-yilda esa uni 51,8 %ga teng bo'ldi[13].

Mamlakat iqtisodiyotida kichik biznesning o'rnini hisobga olgan holda "tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish bilan birga hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish, sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish" [1] ishlari amalga oshirish belgilab berilmoqda.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tuzilmasiga e'tiborni qaratsak, mustaqillikning o'tgan davrida yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik

⁶ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

va metallni qayta ishlash tarmoqlari yuqori sur'atlar bilan o'sayotganini ko'rishimiz mumkin.

Mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati hamda yengil sanoatning yirik tarmoqlari: ip yigiruv va to'qimachilik sanoati sezilarli darajada, doimiy yuqori ko'rsatkichlarda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni tizimli ravishda kengaytirish, kelgusi davr sanoat majmuidagi tarkibiy o'zgarishlarning muhim ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Sanoat tarmoqlaridagi o'sish sur'atlari mazkur tarmoqlarda yaratilayotgan mahsulotlarga bo'lgan ichki va tashqi talab ko'lamiga bog'liq. Mamlakat aholisining real daromadi va xarid qobiliyatini yanada oshirishda iste'mol krediti tizimini keskin kengaytirish va takomillashtirish sanoat majmuida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshiruvchi ichki talab ulushi oshishi bilan xarakterlanadi. Sanoatda yaratiladigan mahsulotlarga jahon bozoridagi bahoning qulay kon'yunkturaga ega bo'lishi, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi sanoat rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va tashqi omil ta'sirining oshishi bilan tavsiflanadi [14].

Sanoat majmuida amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlarda davlatning fiskal va pul-kredit siyosati, umuman, iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha amalga kiritilayotgan chora-tadbirlar natijasida bir qator ijobiy siljishlarga erishildi. Sanoat korxonalarini isloh qilish, tarkibiy qayta tuzish, sanoatda xususiy mulk ulushining yanada oshishi, tarmoq korxonalari boshqaruvini bozor tamoyillari asosida shakllantirish sanoat rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Sanoat rivojlanishini ta'minlashda iqtisodiy mexanizmlardan samarali foydalanish mintaqalar miqyosida sanoat ishlab chiqaruvchilari uchun qulay makroiqtisodiy muhit shakllanishiga olib keladi [15].

Bundan tashqari, mamlakatimiz kelajagida **birinchidan**, yengil sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun korxonalarining viloyatlarda oqilona joylashuviga alohida e'tibor qaratilsa, muhim iqtisodiy va ijtimoiy masala ijobiy hal qilingan bo'lardi.

Ikkinchidan, sanoatdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida uning xom ashyo yetishtirishdan iborat bir tomonlama ishlab chiqarishga moslashuviga chek qo'yib, tarmoqlar tarkibidagi nomutanosibliklarga barham berish hamda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yuqori darajaga ko'tarib, aholining ularga bo'lgan iste'mol talabini to'laroq qondirishga imkoniyat yaratish lozim.

Uchinchidan, sanoatda yangi texnologiyalarga tayangan holda jahon bozori talablariga mos keluvchi, iste'mol uchun tayyor, sifatli mahsulot ishlab chiqarishga o'tish orqali respublikamizda valyuta tushumining o'sishiga erishish zarur.

Yuqoridagi tahlillar va ular asosida shakllantirilgan tavsiyalar hududiy sanoatning tarmoq tarkibini o'zida aks ettirib, ular o'zida hudud sanoati rivojlanishining xususiyatlarini hududiy jihatdan to'liq ochib bera olmaydi.

Shuni hisobga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishini hududni tashkil etuvchi alohida hududiy birliklar doirasida ham o'rganildi.

Bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etish joizki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar jarayonida iqtisodiyot tarmoqlarining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari, ushbu sohalar rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini o'rganish, mintaqalarda iqtisodiyotning yangi, istiqbolli tarmoqlari rivojlanishining aholini ijtimoiy holatiga ta'sirini baholash, mintaqalar hududiy iqtisodiyotida noan'anaviy biznes shakllarining rivojlanish holatini o'rganish, mintaqalarning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish hisobiga hududlarni barqaror rivojlantirishga erishish, aholi bandligini ustivor ta'minlashga erishish, barcha mavjud resurslar salohiyatidan oqilona foydalanishni ta'minlash – iqtisodiyotni rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Shuningdek mamlakatimiz rahbarining 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham “Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks rivojlantirish ko'p jihatdan kelajakda yoqilg'i va yirik mineral xom-ashyo, cheklangan suv va yer zahiralaridan, mintaqa raqobotbardoshlik afzalliklaridan samarali foydalanish yo'llarini aniq belgilab olishni talab qiladi. Mintaqadagi mavjud salohiyat, Orol dengizi inqirozi, cho'llashuv jarayoni, iqlimning o'zgarishi kompleks rivojlanishiga, ayniqsa aholi turmush darajasiga ta'sirini o'z vaqtida aniqlash va uning oldini olish, inson xavfsizligini ta'minlash muhim dolzarb vazifalar qatoriga kiritish mumkin [16]” deb ta'kidlab o'tdilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar va ular asosida aniqlangan tendensiyalardan kelib chiqib, respublikada tarmoq va hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarishini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish muvofiq deb hisoblaymiz:

- modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirish dasturlarini ishlab chiqishda ularga eskirgan jihozlarni bosqichma-bosqich muomaladan chiqarib borish bo'yicha chora-tadbir va talablarning kiritilishini ta'minlash;

- korxonalarda eskirgan texnika va texnologik liniyalarning mavjudligi bo'yicha inventarizatsiya o'tkazilib, ularni bosqichma-bosqich chiqarib borish yuzasidan monitoring tashkil etish zarur;

- korxonalar ishlab chiqarish faoliyatiga yangi asbob-uskunalar va texnik jihozlarni muayyan davrda qiymati jihatidan bir tekisda hamda asbob-uskunalarining texnologik jihatidan jarayonlar uzviyligi va izchilligini hisobga olgan holda kiritilishini ta'minlash;

- mahsulot va xizmatlar assortimentini kengaytirish vazifasiga alohida e'tibor qaratish;

- korxonalar asosiy vositalari tarkibidagi maqbul nisbatlarning saqlanishini ta'minlash zarur.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijalariga asoslanib aytishimiz mumkinki, sanoat iqtisodiy o'sishni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi va aksariyat tadqiqotlardagi mazkur fikr, aynan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan sanoatda innovatsiya va bilimlarning yangi kombinatsiyasidan foydalanish imkoniyatining yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu esa mehnat unumdorligi va ishlab chiqarishning o'sishiga olib keladi, natijada iqtisodiy o'sish ta'minlanadi. Sanoat tarmog'ining dinamikligi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari rivojlanishiga ham sezilarli darajada ijobiy ta'sir etadi. Xususan, sanoatning oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari rivojlanishi qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik sohasining rivojlanishini rag'batlantiradi. Qayta ishlovchi sanoatning rivojlanishi xizmatlar sohasining rivojlanishiga ham kuchli ta'sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. www.lex.uz.
3. Иванова Ю.Н. Основы международной статистики. Учебник/Москва : Инфра-М. – 2013. – 621 с.
4. Гусарова В.М., Кузнецовой Е.И. Статистика. Учебное пособие для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям/под ред. 2-е изд., перераб. и доп. М.: ЮНИТИ-ДАНА. – 2008. – 479 с.
5. В.Т. Salimov. Sanoat maxsuloti ishlab chiqarishning hududlar bo'yicha qiyosiy tahlili va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2018. – №3. (Elektron jurnal).
6. Нарзикулов М.П. Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы. У-го Форума экономистов/ Ташкент. Вакпа. През. – 2012. – С. 8.
7. U.S.H. Shukurov. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning mintaqalar iqtisodiyotiga ta'siri. SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2021 ISSN: 2181-1601. – 2021. – B. 154-163.
8. Wu. Qinghong Hududlarda sanoatni rivojlantirishda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion

texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. – 2022. – B. 228-233.

9. S.A. Sheraliyeva. Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiya jalb etishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Journal of Academic Research in Educational Science. – 2021. (Elektron jurnal).

10. B.B Muhammadjonov. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat hududlari rivojlanishining istiqbollari. Journal of Academic Research in Educational Sciences. – 2022. (Elektron jurnal).

11. D.Sh. Raximov. Diversifikatsiya hududlar sanoatini muvozanatli strategik rivojlantirish yo'nalishlari. Journal of Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences . – 2021. (Elektron jurnal).

12. B.K. G'oyibnazarov. Milliy hisoblar tizimi-makroiqtisodiy tahlil asosi. Monografiya. –Toshkent.: “FAN”. – 2002. – 125 b.

13. Ortikov A. Sanoat iqtisodi. Darslik. Toshkent, TDIU. – 2009. – 236 b.

14. E.X. Maxmudov, A. Ortikov, F.Karimov. Korxonalar iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini. Hamkor. – 2010. – 178 b.

15. Q.R. Sariev. Sanoat korxonalarini faoliyatini iqtisodiy-statistik tahlili (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent. – 2022. – 38 b.